

Lecture 2. Conceptual basics of innovations.

2. Innovatsiyalarning konseptual asoslari.

Reja:

1. Asosiy tushunchalar va innovatika nazariyasining ma'nosi.
2. "Innovatsiya", "yangilik" va "novatsiya" tushunchalari
3. Innovatsion faoliyat
4. Innovatsion infratuzilma

Innovatsiyalar va innovatsion boshqaruvga nisbatan oshirilgan e'tibor hozirgi jamiyat hayotining o'zi tomonidan talab qilinadi, axir innovatsion jarayonlarni yangi mahsulotlar va yangi texnikada ro'yobga chiqishi uning sotsial-iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'ladi.

Innovatsion jarayon innovatsion o'zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo'ladi va yagona bir butunni tashkil qiluvchi o'zaro bog'langan pallalardan tashkil topgan. Bu jarayonning natijasida amalga oshirilgan o'zgarish innovatsiya paydo bo'ladi. Innovatsion jarayonni amalga oshirish ucun diffuziya – yangi sharoitlar va qo'llash joylarda bir marta o'zlashtirib va foydalanib va foydalanib bo'lingan innovatsiyalarni vaqtda tarqatish katta ahamiyatga ega. Innovatsion jarayon davraviy xarakterga ega, buni iqtisodiyotni tashkil etish va boshqarishning ixcham tizmlarini ishlab chiqishda hisobga olish zarur.

Jahon iqtisodiy adabiyotlarida "innovatsiya" salohiyatli ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) ni haqiqiy yangi mahsulotlar va texnologiyalarda ifodalanishi sifatida talqin qilinadi. Bizning mamlakatimizda yangilik kiritish muammolari ko'p yillar davomida ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan.

"Innovatsiya" atamasidan O'zbekistonning o'tish iqtisodiyotida ham mustaqil, ham bir qator o'xshash tushunchalar "Innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon" va "innovatsion qaror" va h.k.larni belgilash uchun foydalanilgan.

Quyida bir nechta tushunchalar bilan tanishamiz.

Yangilik – bu yangi tartib, yangi usul va kashfiyot bo'lishi mumkin.

Yangilanish – bu yangilikdan foydalanganligini ifodalovchi jarayondir. Yangilikni amaliyotga joriy etish uchun qabul qilinishi bu **innovatsion jarayondir**.

Innovatika – innovatsion jarayonlar taraqqiyotining qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sohasi. Innovatika innovatsion mnejmentning ilmiy tarkibidir.

Innovatsiyani tarqatish – bu axborot jarayoni, shakl va tezlik, kommunikatsiya vositalari quvvatiga, ma'lumotlarni qabul qiluvchi xo'jalik

yurituvchi subyektlar o'ziga xos tomonlarga va amaliyotda qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir.

Innovatsion menejment tashkiliy tuzilishi jihatidan innovatsion faoliyat, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan shug'ulanuvchi tashkilot bo'lib, ular faoliyatining asosiy qismini yangiliklar yaratish va ilmiy izlanishlar tashkil etiladi.

Rossiyada ilmiy tashkilotlarning quyidagi quyidagi turlanishi harakat qiladi;

Sektor	Mazmuni
Davlat	Butun jamiyat ehtiyojlarini ta'minlovchi davlat tomonidan boshqiriladigan vazirlik va mahkamalar, (Davlat boshqaruv apparati, mudofaa, sog'likni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot) federal va mahalliy organlar. Davlat tomonidan to'la moliyalashtiriladigan va nazorat qilinadigan foydasiz tashkilotlar bu yerda oily ta'lim tassarrufidagi tashkilotlar inobatga olinmagan. Ular o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymaydi, davlatga xizmat qiladi.
Tadbirkorlik	Bu asosiy faoliyati mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga qaratilgan korxonalar va firmalar, shu jumladan davlat tasarrufidagi korxonalar ham
Oily ta'lim	Universitet va boshqa oily ta'lim muassasalari, (moliyalashtirish manbai va yuqori boshqaruv oranidan qat'iy nazar). Oily ta'lim vazirligi nazorati tasarrufidagi ilmiy tekshirish institutlari, tajriba stantsiyalari, Oliy ta'limga xizmat qiluvchi tashkilotlar.
Xususiy	O'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan (professional jamiyatlar, ittifoqlar, assotsiatsiyalari, jamoatchilik fondlari). Bunga yarimi davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilganlari kirmaydi. Yakka xususiy korxonalar.

Innovatsion menejmentining tarkibiy tuzilishida kichik firmalar alohida rol o'ynaydi. Kichik jamoa yangi g'oyalarni o'ziga olish va unga e'tibor qaratishda qulayroq hisoblanadi. O'tgan asrning 60- yillarida kichik tadqiqotchilik biznesi yuzaga keldi. Ular yirik universitetlar atrofida universitet texnikasi va tajriba uchastkalaridan foydalanib yerlarni ijaraga olib tadqiqot ishlari olib bora boshladilar.

O'sha davralarda AQSHning Stenford universiteti atrofida 3000 ga yaqin kichik va o'rta elektron firmalar to'planib, ularda qariyb 200 ming kishi faoliyat yurotgan. Ularning har biri bitta yoki ikkita mahsulotni yaratish va ishlab chiqarish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ular jaxonning kompyuter va ayrim turdagi elektron qismlarga bo'lgan ehtiyojini 20 foizini ta'minlab bergan.

Xorijiy amaliyotda kichik va o'rta biznes subyektlarida xodimlar soni 500 kishigachani tashkil etadi.

“Mak Trou Xill” kompaniyasida kichik biznes 50 kishigacha, o’rta biznes 99 kishigacha, yirik biznes 100 kishidan ortiqni tashkil etadi.

Yana bir avtomobil shinalari ishlab chiqaruvchi “Gudvir” zavodining tashkiliy ishlab chiqarish tuzilishi 194 ta alohida olingan ish joylardan iborat bo’lib, ularda 5 tadan 27 tagacha kishi ishlaydi.

Innovatsion masalalariga yaponiya korxonalarini alohida e’tibor bilan qaraydilar. Ular ilmiy tadqiqot ishlariga mahsulot sotish hajmining 8-10 foizi miqdorida mablag’ ajratib boradilar.

Amerika qo’shma shtatlari amliyyotida izlanuvchanlik ishlarini tashkil etish borasida o’ziga xos tadbirkorlik shakli sifatida Venchur biznes tashkil etilgan.

Venchur biznes- bu mustaqil, uncha katta bo’lmagan firmani yangi mahsulot yaratish yuzasidan ish olib borishga ixtisoslashgan turidir. Bunday firmalarni olimlar, mutaxassislar va novatorlar tashkil etishi mumkin. Venchur biznes AQSH, G’arbiy Yevropa va Yaponiyada keng tarqalgan. Venchur firmalari mahsulot ishlab chiqarmaydi, o’zining ilmiy yangiliklarini boshqa firmalarga beradi. Venchur firma ma’lum bir yirik firmalarning qoshida tashkil etilishi ham mumkin.

Bunday holatda innovatsion menejerning funktsiyasini korxonalar menejeri yoki maxsus maslahat markazlari (konsalting firma) xodimlari bajarishi mumkin.

Venchur korxonalarini tashkil etishda quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- yangi mahsulot va texnologiya bo’yicha innovatsion g’oya mavjud bo’lishi;
- ular taklif etilgan g’oya bo’yicha yangi firma tashkil etishga xohishi bo’lgan tadbirkor bo’lishi;

- tavakkal qiluvchi kapital uchun moliyalashtirishning mavjudligi.

Venchur biznes asosan ikki shaklda moliyalashtiriladi;

- yangi firma aksiyalarini sotib olish yo’li bilan;

- har xil turdagi kreditlarni berish orqali.

Venchur biznesda investitsiyalash kompaniya kapitalida investorlarni hissa ko’rinishida ishtiroki, mablag’ni uzoq muddatga berilishi, investorni moliyalashtirilayotgan firma boshqaruvida faol ishtirok etishi bilan boshqa firmalarga nisbatan farq qiladi.

Venchur korxonalarini ikki ko’rinishida bo’lishi mumkin;

- shaxsiy tavakkal qilingan biznes;

- yirik korporatsiya loyihalarining ichki tavakkal qilishi.

O’z navbatida, shaxsiy tavakkal qilingan biznesning o’zi ham ikki asosiy zo’jalik yurutuvchi subyekti sifatida namoyon bo’ladi;

- kichik innovatsion firmalarga bo’sunmagan;

- moliyaviy muassasalar kapitaliga tayangan;

Kichik innovatsion firmalarga, odatda, ilmiy xodimlar, muhandislar va izlanuvchilar asos soladi. Ularning maqsadi yangi texnika va texnologiyalar yaratish hisobiga hayotda yangi yutuqlarga erishish hisoblanadi.

Venchur kapitalining bosh manfaati muvafaqiyatli faoliyat yuritib yuqori daromad olishdir.

AQSHda Venchur korxonalarining daromadlilikdarajasi o'rtacha 20 foizini tashkil etadi, u butun AQSH iqtisodiyotidagi ko'rsatkichdan taxminan 3 barobar yuqoridir.

Yangi yoki eski bozor segmentini qayta tashkil etishga ixtisoslashgan firma-eksplerent deyiladi. Ular asosan bozorga yangiliklarni olib kirishga harakat qiladi.

Bunday (eksplerent) firmalarda tavakkalchilikni pasaytirish maqsadida ma'lum muddatga moliyalashtirishning namunaviy sxemasi ishlab chiqiladi. Bu muddatda eksplerent firma muvaffaqiyatga erishishi kerak. Masalan: agar moliyalashtirish 48 oyga mo'ljallangan bo'lsa kapitalni jalb etish 5 ta davr oralig'ida amalga oshiriladi. Bunday xolatda har bir yangi mablag' ajratilishi oldingi mablag' samara bergan holdagina amalga oshiriladi. Shuningdek, har bir ajratilgan mablag' oldingisiga nisbatan katta hajmda bo'ladi.

G'arb mamlakatlarida innovatsion firmalarda loyihaning texnik tomonlarini uning muallifi bo'lgan va yetarli tijorat tajribasiga ega bo'lgan menejer boshqaradi.

Dastlabki tashkil etilgan firma – eksplerent “Pioner” nomini olgan.

Eksplerent firmalar hajmi venchur firmalar singari uncha katta bo'lmaydi.

Keyingi paytlarda Rossiyada ham kichik ilmiy – texnik tadbirkorlik innovatsion jarayon har tomonlama qo'llab quvatlanishi natijasida keng taraqqiy etdi. Ularning aksariyati Davlat ta'lim vazirligi tasarrufidagi Oliy ta'limdagi texnoparkiga birlashgan 800 dan ziyod kichik firmalarda faoliyat yuritadi. Texnoparklarning asosiy maqsadi kichik innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Texnoparklardan tashqari biznes inkubatorlar ham tashkil etilib, ularning maqsadi foyda keltiruvchi har qanday loyihani amalga oshirishdir.

O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida joylarda ko'plab biznes inkubatorlari tashkil etilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishda eksplerent (Pioner) firmalar oldida muammo yuzaga kelgan paytda ular yirik korxonalar bilan hamkorlik shartnomasini imzolaydilar.

Bozorning tor segmentiga qaratilgan firma – patient deb ataladi. Bunday firma bozorning tor segmentida ish yuritadi moda, reklama va boshqa vositalar orqali o'z ehtiyojini ta'minlaydi. Ular asosan ishlab chiqarishning o'sishi, izlanuvchanlik aktivligining pasayishi jarayonida harakat qiladi. Bu korxonalar, odatda, foydali hisoblanadi.

Yirik biznesda Violent firmalar harakat qiladi. Ular yirik kapitalga va yuqori texnologiyaga asoslanadi va yirik partiyadagi va keng iste'molga asoslangan holada yalpi mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi hamda yuqori foydali hisoblanadi.

Violent korxonalar ham yuqori foydali hisoblanadi.

Kichik va o'rta biznesda mahalliy va milliy ehtiyojni ta'minlashga ixtisoslashgan firma- kommutant deb yuritiladi. Ushbu firmalar mahsulot ishlab chiqarishni sikli (jarayonida) harakat qiladi. Bu yerda korxonalar iste'molchi holatidan kelib chiqib ilmiy- texnik siyosatini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Abdullayev, A.E.Teshabaev va b. "Innovatsion menejment" o'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya" nashriyoti . 2015
2. и.ф.д., проф. Р.Р.Хасанов. Инновацион таракқиётнинг мазмуни, инновация турлари ва инновацион жараёнлар қонуниятлари. Презентации.
3. S.G'ulomov, G'.Qosimov va b. "Strategik va innovatsion menejment" darslik. Toshkent – 2013.
4. Nazarova F.X. , Ziyayeva Sh.Sh. "Innovatsion menejment". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2018